


Buxoro viloyatining demografik holati

I. Doimiy aholi soni.


Buxoro viloyatining doimiy aholisi soni 2017 yil 1 yanvar holatiga 1843,5 ming kishini tashkil etib, 2001 yil 1 yanvar holatiga nisbatan 405,8 ming. kishiga, ya'ni 28,2 foizga o'sgan (1-jadval).

<i>1-jadval</i>										
Buxoro viloyati doimiy aholisi soni to'g'risida ma'lumot										
(yil boshida; ming kishi)										
	2001й		2011й		2016й		2017й		2017 yilning 2001 yilga nisbatan farqi	
	soni	ulushi , %	soni	ulushi , %	soni	ulushi , %	soni	ulushi , %	+, -	%
Jami aholi soni	1437,7	100,0	1683,8	100	1815,2	100	1843,5	100	405,8	128,2
<i>shu jumladan:</i>										
erkaklar	715,0	49,7	837,6	49,7	906,9	50,0	921,7	50,0	206,7	128,9
ayollar	722,7	50,3	846,2	50,3	908,3	50,0	921,8	50,0	199,1	127,5


2017 yil 1 yanvar holatida



1 rasm. Buxoro viloyati doimiy aholisi jinsi bo'yicha taqsimlanishi
(foizda)




2 rasm. Buxoro viloyati doimiy aholisining shahar va tumanlar kesimida soni 2017 yil 1 yanvar holatida (ming kishi)



3-rasm. Buxoro viloyati doimiy aholisi soni (ming kishi)

Mazkur yillarda Buxoro viloyati aholisining joylashuvi bo'yicha tarkibida ham sezilarli o'zgarishlar kuzatilgan, ya'ni 2000 yilda shahar aholisining jami aholi sonidagi ulushi – 30,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2005 yilda – 29,5 foizni, 2010 yilda – 38,3 foizni, 2015 yilda – 37,7 foizni, 2016 yilda – 37,5 foizni tashkil etdi (2-rasm).




4-rasm. Buxoro viloyati doimiy aholisining joylashuvi bo'yicha taqsimlanishi (foizda)

Viloyat aholisining 2000-2016 yillarda yosh tarkibida ham sezilarli o'zgarishlar kuzatilgan.

Jumladan, 2000 yilda mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar (0-15 yoshdagilar) ulushi 38,4 foizni, mehnatga layoqatli yoshdagilar (erkaklar 16-59 yosh, ayollar 16-54 yosh) 54,6 foizni, mehnatga layoqatli yoshdan kattalar (erkaklar 60 yosh va undan katta, ayollar 55 yosh va undan katta) 7,0 foizni tashkil etgan.

2017 yil 1 yanvar holatiga mazkur ko'rsatkichlar mos ravishda 28,4 foiz, 61,7 foiz va 9,9 foizni tashkil etgan (2-jadval).

2-jadval						
Buxoro viloyati doimiy aholisining yosh tarkibi to'g'risida ma'lumot						
(yil boshiga; ming kishi)						
	2001 y		2016y		2017y	
	soni	ulushi, %	soni	ulushi, %	soni	ulushi, %
Jami aholi soni	1437.7	100	1815.2	100	1843.5	100
shu jumladan:						
mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar	551.4	38.4	515,1	28.4	523.9	28.4
mehnatga layoqatli yoshdagilar	785.0	54.6	1127.6	62.1	1136.3	61.1
mehnatga layoqatli yoshdan kattalar	101.3	7.0	172.5	9.5	183.3	9.9



5-rasm. Buxoro viloyati doimiy aholisining yosh tarkibi bo'yicha bo'linishi (foizda)

2016 yilda 2000 yilga nisbatan mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar ulushi kamayish tendentsiyasiga ega bo'lgan bo'lsa, mehnatga layoqatli yoshdagilar va mehnatga layoqatli yoshdan kattalar ulushi esa o'sgan.

Viloyat bo'yicha 2000 yilda aholining o'rtacha yoshi 24,9 yoshni tashkil etgan bo'lsa, 2017 yilga kelib bu ko'rsatkich 29,5 yoshni tashkil etmoqda, ya'ni viloyat aholisining o'rtacha yoshi 4,6 yoshga keksayganligini kuzatish mumkin.


II. Aholining tabiiy harakati.

Aholining tabiiy harakati ko'rsatkichlarida ham o'zgarishlar kuzatilib, 2000 yilda viloyatda 28,6 ming nafar bola tug'ilgan bo'lib, 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsienti 20,0 promilleni, mazkur yilda 6,7 ming kishi vafot etgan bo'lib, 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsienti 4,7 promilleni tashkil etgan bo'lib, aholining tabiiy o'sishi 21,9 ming kishiga, ya'ni 1000 aholiga nisbatan aholining tabiiy o'sish koeffitsienti 15,3 promilleni tashkil etgan.


Quyidagi jadvalda viloyat aholisining tabiiy harakati ko'rsatkichlari keltirilgan (3-jadval).

	2000y.		2005y.		2015y		2016y	
	soni	1000 aholiga nisbatan	soni	1000 aholiga nisbatan	soni	1000 aholiga nisbatan	soni	1000 aholiga nisbatan
Tugʻilganlar	28,6	20,0	30,1	19,8	39,4	21,9	38,3	20,9
Oʻlganlar	6,7	4,7	6,9	4,5	8,0	4,4	8,0	4,4
Aholining tabiiy oʻsishi	21,9	15,3	23,2	15,3	31,4	17,4	30,3	16,6
Tuzilgan nikohlar, ming birlik	11,1	7,7	11,8	7,8	16,3	9,1	15,8	8,6
Nikohdan ajralishlar, ming birlik	1,2	0,9	1,0	0,7	1,8	1,0	1,6	0,9

6 rasm. Buxoro viloyati bo'yicha tug'ilganlar soni
(yilda; ming kishi)




7-rasm. Buxoro viloyati bo'yicha o'lganlar soni
(yilda; ming kishi)



8-rasm. **Buxoro viloyati aholisining tabiiy o'sishi**
(yilda; ming kishi)


1. Tug'ilganlar soni.

Viloyatda 2016 yilda 38,3 ming nafar bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsienti 20,9 promilleni tashkil etdi.



9 rasm. **Buxoro viloyatida tug'ilishning shahar va tumanlar kesimida soni**
(2016 yil uchun; ming kishi)


Bundan tashqari 2000 yillarda fertil yoshdagi (15-49 yosh) 1 ayol hayoti davomida tugqan bolalar soni, ya'ni tug'ilishning yig'indi koeffitsienti 2,28 ni tashkil etgan bo'lsa, keyingi yillarda pasayish tendentsiyasi kuzatildi va 2015 yilda kelib o'sish kuzatilgan ya'ni 2,31 koeffitsientni tashkil etgan, 2016 yilda bu ko'rsatkich 2,26 ni tashkil etdi (6-rasm).



10-rasm. Buxoro viloyati bo'yicha tug'ilishning yig'indi koeffitsienti (15-49 yoshli ayollarning hayoti davomida tugqan bolalari soni)


2. O'lganlar soni.

Viloyatda 2016 yilda 8,0 ming kishining vafot etganligi qayd etilib, 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsienti 4,4 promilleni tashkil etdi



**11-rasm. Buxoro viloyatida o'limning shahar va tumanlar kesimida soni
(2016 yil uchun; ming kishi)**

Viloyatda 2000 yilda 6,7 ming kishi, 2005 yilda 6,9 ming kishi, 2010 yilda 7,5 ming kishi vafot etgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsienti 4,7 promille, 4,5 promille, 4,5 promilleni tashkil etgan.




**12-rasm. Buxoro viloyati bo'yicha onalar o'limi ko'rsatkichi
(100 000 tug'ilgan bolaga nisbatan)**

Viloyatda onalar o'limi ko'rsatkichi ham pasayish tendentsiyasiga ega bo'lib, 100 000 tug'ilgan bolaga nisbatan 2000 yilda onalar o'limi koeffitsienti 49,0 ni tashkil etgan bo'lsa, 2005 yilda 29,9 ni, 2010 yilda 23,1 ni va 2015 yilda 7,6 ni 2016 yilda esa 7,8 ni tashkil etgan (7-rasm).

Viloyatdada 2016 yilda bir yoshgacha o'lgan bolalar soni 366 nafar bolani tashkil etib, 1000 tug'ilgan bolaga nisbatan go'daklar (1 yoshgacha bolalar) o'limi koeffitsienti 9,5 promilleni tashkil etdi.

Viloyatdada 1000 tug'ilgan bolaga nisbatan go'daklar (1 yoshgacha bolalar) o'limi koeffitsienti 2000 yilda 19,0 promilleni, 2005 yilda 12,0 promilleni, 2010 yilda 11,3 promilleni va 2015 yilda 10 promilleni tashkil etgan (8-rasm).



13-rasm. Buxoro viloyati bo'yicha go'daklar va bolalar o'limi ko'rsatkichlari


(1000 tug'ilgan bolaga nisbatan; promille)

Viloyatda 2016 yilda besh yoshgacha o'lgan bolalar soni 474 nafarni tashkil etib, 1000 tug'ilgan bolaga nisbatan bolalar (5 yoshgacha) o'limi koeffitsienti 12,4 promilleni tashkil etgan.

Viloyatda 1000 tug'ilgan bolaga nisbatan bolalar (5 yoshgacha) o'limi koeffitsienti 2000 yilda 27,8 promilleni, 2005 yilda 16,5 promilleni, 2010 yilda 15,3 promilleni va 2015 yilda 13,3 promilleni tashkil etgan.

3. Tug'ilishda kutilgan umr davomiyligi.


Aholining yashash sifati ko'rsatkichlaridan biri bu tug'ilishda kutilgan umr davomiyligi hisoblanadi. Viloyatda 2016 yilda mazkur ko'rsatkich 75,5 yoshni (ayollarda – 77,4 yosh, erkaklarda – 73,6 yosh) tashkil etgan (9-rasm).



14-rasm. Buxoro viloyati bo'yicha tug'ilishda kutilgan umr davomiyligi (yosh)

Tug'ilishda kutilgan umr davomiyligi ko'rsatkichi so'nggi yillarda o'sish tendentsiyasiga ega bo'lib, jumladan 2000 yilda ushbu ko'rsatkich 71,9 yoshni tashkil etgan bo'lsa, 2005 yilda 73,6 yoshni, 2010 yilda 73,7 yoshni va 2015 yilda 75 yoshni tashkil etgan.

4. Tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar.




15-rasm. Buxoro viloyati bo'yicha nikoh tuzish va nikohdan ajralish koeffitsientlari

(1000 aholiga nisbatan; promille)

Viloyat bo'yicha 2016 yilda 15,8 mingta nikoh qayd etilgan bo'lib, 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 8,6 promilleni tashkil etgan (10-rasm).

Viloyatda 2010 yillarda birinchi marta nikoh qurgan qiz bolalarning o'rtacha yoshi 22,2 yoshni tashkil etgan bo'lsa, 2016 yilda bu ko'rsatkich 22,6 yoshni tashkil etdi, ya'ni 0,4 yoshga ko'paydi.

Viloyatda 2010 yillarda birinchi marta nikoh qurgan o'g'il bolalarning o'rtacha yoshi 24,2 yoshni tashkil etgan bo'lsa, 2016 yilda ushbu ko'rsatkich 24,8 yoshni tashkil etdi, ya'ni 0,4 yoshga ko'paydi (11-rasm).



16-rasm. Buxoro viloyati bo'yicha ilk bor nikoh tuzuvchilarning o'rtacha yoshi (yosh)


Viloyat bo'yicha 2016 yilda 1,6 mingta nikohdan ajralish qayd etilgan bo'lib, o'tgan yilga nisbatan 0,2 mingtaga kamaygan. 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsienti esa 0,9 promilleni tashkil etgan.

2000 yilda viloyatda 1,2 mingta nikohdan ajralish qayd etilgan bo'lib, 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsienti 0,9 promilleni tashkil etgan. Keyingi yillarda nikohdan ajralishlar soni kamayib borish tendentsiyasiga ega bo'lib, 2015 yildan boshlab yana o'sish kuzatilgan.

III. Ma'muriy hududiy birliklar.

Viloyatda 2017 yil 1 yanvar holatiga 11 ta tuman, 2 ta viloyatga bo'sinuvchi shahar 9 ta tumanga bo'sinuvchi shahar 69 ta shaharcha, 121 ta qishloq fuqarolar yig'inlari, 1469 ta qishloq aholi punkti hamda 433 ta mahalla fuqarolar yig'inlari mavjud.

Viloyat hududi 40,32 ming kv.km tashkil etib, 1 kv.kmga 45,7 kishi to'g'ri keladi.



17-rasm. Buxoro viloyati tumanlari bo'yicha aholi zichligi
(2017 yil 1 yanvar holatida; 1kv.kmga to'g'ri keladigan aholi soni)

Ma'lumot uchun tel raqamlar
223-83-37; 22381-58; 223-32-90